



MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISH TARIXI

Yunusova Robiya Muhammadjon qizi

Millat Umidi universiteti

Xalqaro Moliya va Buxgalteriya fakulteti 1-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17529650>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025

Accepted: 2nd November 2025

Published: 5th November 2025

KEYWORDS

Yangi O'zbekiston, O'zbekiston Respublikasi, tashqi savdo, eksport, import, iqtisodiy rivojlanish, diversifikatsiya, xalqaro hamkorlik, JST, iqtisodiy siyosat, global integratsiya, "Made in Uzbekistan".

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so'ng tashqi savdo aloqalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, iqtisodiyotda tutgan o'рни hamda uning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri yoritilgan. Maqolada 1991-2025-yillar oralig'idagi tashqi savdo siyosati bosqichlari, asosiy eksport va import yo'nalishlari, hamkor davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi va "Made in Uzbekistan" brendining shakllanishi haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqot natijalarida tashqi savdoning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, diversifikatsiya jarayonlari va yangi davrda erishilgan yutuqlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kirish

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri – ochiq iqtisodiy siyosat yuritish, eksport salohiyatini oshirish hamda tashqi savdo munosabatlarini kengaytirishdan iborat edi. Shu sababli 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng amalga oshirgan eng muhim ishlaridan biri bu milliy iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish bo'ldi. Chunki tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakatning xalqaro maydondagi o'рни, iqtisodiy barqarorlik va shu bilan birga investitsion muhitni belgilovchi asosiy omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy bosqichida tashqi savdo faoliyati muhim ahamiyatga ega edi. Shuning uchun mamlakatimizda amalga oshirilgan tub iqtisodiy islohotlar, jumladan, tashqi savdo sohasidagi o'zgarishlar jahon hamjamiyati bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan edi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi savdo siyosatini liberallashtirish va xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish orqali o'z o'rnini mustahkamlashga harakat qildi. Olib borilgan islohotlar tufayli tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibiy tuzilishi sezilarli darajada o'zgardi. Hozirgi kunda respublika iqtisodiyoti tashqi bozorlarga tobora integratsiyalashib bormoqda

Asosiy qism

O'zbekiston milliy mahsulotlarini jahon bozorida targ'ib qilish maqsadida "Made in Uzbekistan" brendi 2019-yilda yaratilgan. Bu tashabbus O'zbekiston Respublikasi

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (hozirgi Investitsiyalar,sanoat va savdo vazirligi – MIIT) tomonidan ilgari surilgan.Brendning rasmiy taqdimoti 2019-yil 23-25 oktyabr kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan "Made in Uzbekistan" nomli xalqaro ko'rgazmada bo'lib o'tgan.Dastlab bu brend to'qimachilik,ozuq-ovqat va charm-poyabzal mahsulotlarida qo'llanilgan."Made in Uzbekistan" yorlig'i orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini sifatli,ekologik toza va xalqaro talablarga javob beruvchi tarzda tanitishni boshlaganlar.Keyinchalik brend kimyo sanoati, elektrotexnika, farmatsevtika va qurilish materiallari kabi tarmoqlarda ham keng tarqaldi.2020-yildan boshlab esa O'zbekiston hukumati xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida **Alibaba.com** platformasida "Made in Uzbekistan" onlayn bo'limini ishga tushirdi.Bu orqali o'zbek mahsulotlari dunyoning turli burchaklaridagi xaridorlarga yetib boorish imkoniga ega bo'ldi. Brend yaratilganidan so'ng u xalqaro savdo yarmarkalari va ko'rgazmalarda faol targ'ib qilindi.O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari "Made in Uzbekistan" belgisi ostida Rossiya,Turkiya,Qozog'iston Xitoy va Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar.Shu tariqa,bu brend O'zbekistonning eksport siyosatini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy imijini mustahkamlashda muhim o'rin tutdi.Bugungi kunda "Made in Uzbekistan" brendi O'zbekiston tashqi savdosining ajralmas qismi hisoblanadi.U nafaqat eksport qilinayotgan mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini ta'minlaydi, balki xalqaro hamkorlikni kengaytirish,yangi bozorlarni zabt etish va milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida sanoat korxonalarini tashkil etish,xususiylar tadbirkorlik sub'ektlarining mahsulotlarini eksport qilishni qo'llab-quvvatlash,ularga har tomonlama ko'mak berish,mahsulotlarini eksport qilishni qo'llab-quvvatlash,ularga har tomonlama ko'mak berish,mahsulotlarini eksportga yo'naltirish,qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan o'sishi,mamlakatimizning eksport salohiyati izchil yuksalishiga xizmat qildi.Darhaqiqat," Made in Uzbekistan" yorlig'i tushirilgan mahsulotlarimiz dunyo bozorlaridan mustahkam joy olmoqda.Korxonalarimiz jahonga qariyb barcha turdagi tovarlarni – ozuq-ovqat mahsulotlari,kiyim-kechak,qurilish materiallaridan tortib yuqori texnologiyali zamonaviy texnikalargacha taklif etmoqda.Xalqaro andozalar asosida ishlab chiqarilayotgan bu mahsulotlar yuksak sifati bilan xorijlik iste'molchilarga manzur bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tashqi savdo aylanmasi unga 2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi 36 299,3 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 5 451,7 mln. AQSH dollariga yoki 13,1 %ga kamaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyati bo'yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan,xususan,Afg'oniston (772,3 mln. AQSH dollari),Qirg'iziston (610,1 mln. AQSH),Tojikiston (307,2 mln. AQSH dollari), va Eron (33,2 mln. AQSH dollari)shular jumlasidandir. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 32,6%ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022-yilga nisbatan ulushi 2,0%ga kamaygan.

Eksport bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 6 109 tani tashkil etib,ular tomonidan 9 323,3 mln. AQSH dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan 25,7%ga kamaydi) Tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.O'zbekiston Respublikasi eksporti dekabr oyida 930,4 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etilib,o'tgan yilning shu oyiga nisbatan 673,5 mln. AQSH dollariga kamaydi.

Import bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 21 171,5 mln. AQSH dollarini va 2022-yilga nisbatan 87,2 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (37,6%), sanoat tovarlari (16,9%) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (13,7%) hisobiga to'g'ri keldi. 2023 -yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan 147 davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Chexiya Respublikasi) jami importning 71,9% ulushini tashkil qildi, bu 15 228,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda Tashqi iqtisodiy faoliyat To'var nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keying o'rinlarda XSST) qo'llaniladi. Bu, o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda mustaqil O'zbekiston tashqi savdo aloqalarining rivojlanish tarixi mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynadi. Dastlabki yillardagi cheklovli siyosatdan boshlab, bugungi global integratsiyalashgan iqtisodiyotga qadar bo'lgan yo'l - O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi obro'sini oshirdi. Kelgusida O'zbekistonning tashqi savdo strategiyasi eksportni diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni egallash va raqobatbardosh milliy mahsulot ishlab chiqarish orqali yanada rivojlanadi deb o'layman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshev Murod Toyirovich – Mustaqillik Yillarida O'zbekiston Tashqi Savdosi: Holati Va Istiqbollari.
2. Alimov Abduqodir Abduvaxob o'g'li – Yangi O'zbekistonning Tashqi Savdo Amaliyotida Meva-Sabzavot Eksportining Ahamiyati.
3. gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal, 2019-yil.
4. Trade.gov - 2020-yil "Uzbekistan eCommerce" hisobot.